

№ 13-sonli Bayonnomasidan ko'chirma

Nukus shahri

Kengash raisi: M.S. Utepbergenov - harbiy-akademik litsey direktori.

Qatnashganlar: U.E. Kadirov - akademik litsey direktorining ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar bo'yicha birinchi o'rinbosari, podpolkovnik
I.Dj. Matmurotov- harbiy-akademik litsey direktorining ma'muriy-xo'jalik ishlari bo'yicha o'rinbosari.
Kafedra boshliqlari va harbiy-akademik litsey xodimlari va o'qituvchilar.

KUN TARTIBI:

4. Har xil masalalar.

c) harbiy-akademik litseyda to'garaklar faoliyati haqida.

Tinglandi:

Ilmiy-pedagogik kengashni harbiy-akademik litsey direktori, ilmiy-pedagogik kengash raisi M. Utepbergenov kirish so'zi bilan ochib berdi va olib bordi. Bugungi ilmiy-pedagogik kengashda bayonot qiluvchilardan kun tartibining bir qismi bo'lgan to'garaklar faoliyati bo'yicha bayonot qilishni litsey to'garak rahbari S.Qadirimbetov so'z olib, harbiy-akademik litseyda faoliyat yuritayotgan havaskorlik to'garaklari doirasida o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularning ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish maqsadida muntazam ravishda turli musobaqalar, ko'rgazmalar, tanlovlar va loyihalar tashkil etilgani:

Jumladan, 2024/2025-o'quv yili davomida harbiy-akademik litseyda havaskorlik to'garaklarida ishtirok etayotgan o'quvchilar Respublika miqyosida o'tkazilgan bir qator musobaqa va tanlovlarda hamda ko'rgazmalarda faol ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egallab, "Zakovat" to'garagi a'zolari intellektual o'yin bo'yicha "Talaba-o'quvchilar ligasi" sinxron turnirlarining 2024/2025-yilgi kuzgi va bahorgi mavsumlarida faxrli o'rinlarni hamda o'rta-maxsus va kasbiy ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan "Zakovat" intellektual o'yini respublika bosqichida ishtiroki, shuningdek, kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilari o'rtasida "Zakovat" intellektual o'yinining Respublika hududiy bosqichlarida faol ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egallagan uchun "Diplom" va "Sertifikat"lar bilan taqdirlanganini ta'kidlab o'tdi.

Shuningdek, "Yosh rassomlar" to'garagi a'zolari "Sankt-Peterburg kadetlari" mintaqaviy jamoat tashkiloti tomonidan o'tkazilgan "Великая победа. 80 лет" (Buyuk G'alabaning 80 yilligi) munosabati bilan o'tkazilgan bolalar va o'smirlar o'rtasidagi mintaqaviy ko'rik-tanlovida onlayn ishtirok etib, faxrli o'rinlarni qo'lga kiritib, yuqoridagi yutuqlar munosabati bilan faol o'quvchilar harbiy-akademik litseyi ma'muriyati tomonidan faxriy yorliq, diplom, esdalik sovg'alari hamda tashakkurnomalar bilan rag'batlantirib borilganini aytib o'tdi.

Ilmiy-pedagogik kengash yuqoridagi kun tartibida ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan quyidagicha

QAROR QILINDI:

1. Ilmiy-pedagogik kengashda o'qilgan bayonotlar ma'lumot uchun qabul qilinsin va qoniqarli deb topilsin.

2. Harbiy-akademik litseydagi mavjud to'garaklarga a'zo bo'lgan o'quvchilarning turli musobaqa va ko'rik-tanlovdagi ishtiroki, har xil ko'rgazma loyihalarda faol qatnashib erishgan natijalariga qarab egallagan o'rni va loyiq qatnashgan o'quvchilar munosib tarzda rag'batlantirilsin.

3. Harbiy-akademik litseyda va boshqa ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan musobaqa va ko'rik-tanlovlarda litsey o'quvchilarining munosib ishtiroki ta'minlab borilsin.



to'g'ri

M. Jumabayev

M. Jumabayev